

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ANDANIYAZOVA GAVHAR RUZIQULOVNA

**SHAROF BOSHBEKOV ASARLARINING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K: 811.512.133’42:008+821.512.133.09-21

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological sciences**

Andaniyazova Gavhar Ruziqulovna

Sharof Boshbekov asarlarining lingvopoetik xususiyatlari 3

Анданиязова Гавхар Рузикуловна

Лингвопоэтические свойства произведений Шарофа Бошбекова 27

Andaniyazova Gavhar Ruziqulovna

Linguistic and poetic features of Sharof Boshbekov’s creativity 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

ANDANIYAZOVA GAVHAR RUZIQULOVNA

**SHAROF BOSHBEKOV ASARLARINING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Fil2366 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasida (www.tai.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Lutfullayeva Durdona Esonovna
filologiya fanlari doktori, professor

Sobirov Abdulhay Shukurovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "2" dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (871) 233-36-50; faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (65 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent shahar, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel: (99871) 262-74-58).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "18" noyabr da tarqatildi.
(2024-yil "18" noyabr dagi 11 raqamli feyestr bayonnomasi).



N.M.Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, f.f.d., professor

A.M.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, f.f.b.f.d. (PhD)

D.S.Xudoyberganova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy asar tili tadqiqiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Zero, badiiy asar tilida muallifning soʻz sanʼatkori sifatidagi salohiyati, til birliklaridan foydalanish mahorati, qolaversa, dunyoqarashi va oʻziga xos uslubi namoyon boʻladi. Badiiy matnda muayyan til birligi boshqa birliklar bilan faqat semantik-grammatik jihatdan emas, balki hissiy-estetik jihatdan ham munosabatda boʻladi. Shu maʼnoda badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi orqali milliy tilning keng ifoda imkoniyatlarini yoritish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi kabilar bilan bogʻliq holda oʻrganish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Tilshunoslikning bu yoʻnalishdagi mustaqil sohalaridan biri lingvopoetika boʻlib, unda asosiy eʼtibor til birliklarining badiiy matnda muallifning turli badiiy niyatini yoritishga xizmat qiluvchi bebaho vositaga aylanishi hamda oʻziga xos poetik qonuniyatlarni namoyon qilishi masalasi tadqiqiga qaratiladi. Shu bois lingvopoetik tadqiqotlar, jumladan, muayyan ijodkorning badiiy til mahoratini tadqiq etish doirasida amalga oshirilayotgan izlanishlar soha rivojida alohida ahamiyatga ega. Bu boradagi tadqiqotlarga boʻlgan ehtiyoj lingvopoetikaga oid izlanishlarning maqsadi va vazifalarini ham belgilaydi hamda lingvopoetikaning dolzarb muammolari doirasida baholanadi.

Mamlakatimizda oʻzbek tili tarovatini namoyon etuvchi sara asarlarning til xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish, bu borada ijodkorlarning oʻzbek tili rivojiga qoʻshayotgan hissalarini oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Natijada oʻzbek tilining badiiy ifoda koʻlaminini tugal tasavvur etish va ijodkorlarning oʻziga xos mahoratini namoyon qilish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Sh.Boshbekov asarlarida qadimiy va boy oʻzbek tilining tunganmas badiiy imkoniyatlari oʻz ifodasini topgan. Adib asarlarida qoʻllangan fonetik-fonografik, leksik, grammatik vositalarning poetik imkoniyatlarini, jonli nutqqa xos olqish, qargʻish, shevaga xos soʻzlar, soʻroq va buyruq gaplarning ifoda tarzini oʻrganish orqali lingvopoetik tadqiqotlar sohasini rivojlantirish hamda bu boradagi boʻshliqlarni toʻldirish imkoniyati mavjud. Shu maʼnoda oʻzining betakror ijodiy merosi bilan oʻzbek dramaturgiyasi rivojiga katta hissa qoʻshgan Sharof Boshbekov asarlari tilining lingvopoetik xususiyatlarini oʻrganish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining oʻttiz yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi qarorlari, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi¹, “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi²

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni//lex.uz/docs/5058351.

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi

farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotidan kelib chiqadigan natijalar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq tadqiqotlar dunyo tilshunosligida uzoq tarixga ega. Aytish mumkinki, badiiy asar tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlar hamda bu boradagi keng qamrovli tadqiqotlar natijasida lingvopoetika alohida mustaqil soha sifatida shakllandi. Bu masalalar bo'yicha tilshunoslikda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi³. Mazkur ishlarda badiiy matn tadqiqi jarayonida til birliklarining estetik vazifalariga alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi.

O'zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati kabi masalalar maxsus o'rganilgan. Bu borada I.Mirzayev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Yaqubbekova hamda M.Yo'ldoshevlarning tadqiqotlari ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega⁴. So'nggi yillarda G.Muhammadjonova, D.Jamoliddinova, F.Ibragimova, D.Andaniyazova, Sh.Toshxo'jayeva, D.Turdaliyeva, T.Allayorov, Z.Muqimova, J.Matnazarov, M.Yaqubova, J.Yuldashevlarning tadqiqotlarida til birliklarining badiiy matnni shakllantirishdagi o'rni, bir qator o'zbek ijodkorlarining asarlari, xalq og'zaki ijodi namunalarning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan⁵.

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni//<https://lex.uz/docs/5841063>.

³ Bu haqda qarang: Винокур Г.О. Критик Поэтического текста. – М.: Государственная Академия художественных наук, 1927; Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку – М.: Учпедгиз, 1957. – С. 188; Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1992. – С. 61; Липгарт А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале английской литературы): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996. – С. 23; Shu muallif. Основы лингвопоэтики / учебное пособие. – М.: "Диалог-МГУ", 1999. – С. 165.

⁴ Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992; Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати // Танланган асарлар. 3 жилдли.

– Тошкент: Академнашр, 2012; Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Shu muallif. Абдулла Қаҳҳор хикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36; Shu muallif. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б. 12-17; Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2005; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Shu muallif. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009.

⁵ Жамолитдинова Д. Бадий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Shu muallif. Бадий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020; Ибрагимова Ф. Бадий матнда эллипсис ва антиэллипсис: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.

– Тошкент, 2011; Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017; Аллаёров Т. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри

Bugungi kunda o‘zbek lingvopoetikasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkorlar asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini alohida tadqiq etish va o‘ziga xos uslubini yoritishdir. Xususan, Sharof Boshbekov dramalari tilining leksik-semantik hamda uslubiy xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da⁶, ammo ijodkorning asarlari lingvopoetik aspektda maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek tili yo‘nalishi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sharof Boshbekov asarlarini lingvopoetik aspektda o‘rganib, ijodkorning badiiy til mahoratini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sharof Boshbekov asarlaridagi fonetik-fonografik, leksik vositalarning poetik imkoniyatlarini ochib berish;

adib asarlarida qo‘llangan olqish, qarg‘ish, shevaga xos so‘zlarning badiiy matndagi vazifalarini yoritish;

Sh.Boshbekovning ism va laqablardan foydalanish mahoratini ko‘rsatish; intertekstuallik, ellipsis, parsellyatsiyaning Sh.Boshbekov asarlaridagi o‘rnini yoritish;

adib ijodidagi buyruq qurilmalarning gender xususiyatlarini ochib berish; so‘roq qurilmalarning ijodkor badiiy niyatini yoritishdagi ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sharof Boshbekovning “Tanlangan asarlar”iga kirgan drama va kinoqissa matnlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Sharof Boshbekov asarlarida poetik aktuallashgan til birliklarining lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, qiyoslash, zidlash, kontekstual-matniy, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sh.Boshbekov asarlarida qo‘llangan fonetik-fonografik vositalardan nafaqat *unlilarni qavatlash*, balki *so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish*, *uzilishlar*, *so‘zlarni buzib talaffuz qilish* kabi fonopoetik hodisalardan lingvopoetik maqsadda foydalanilgani ko‘rsatilgan;

Sharof Boshbekov asarlaridagi leksik birliklarning badiiy-estetik vazifalari, poetik qimmatini *ozg‘in*, *ramaqijon*; *chuqurlik*, *tubanlik*; *haqoratlamog*,

(PhD) diss. – Toshkent, 2020; Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) diss. – Toshkent, 2020; Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) diss. – Фарғона, 2019; Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) diss. автореф. – Урганч, 2022; Якубова М. Эркин Самандар шеърининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) diss. – Урганч, 2022; Yuldashev J. Usmon Nosir she‘riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023.

⁶ Ikromova G. Sharof Boshbekov dramalarining lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023.

tahqirlamoq, koyimoq kabi sinonimlar; *och-to'q, yig'lamoq-kulmoq* kabi antonimlar; *firma-ferma, internet-internat* kabi paronimlar asosida ochib berilgan; badiiy-estetik vazifa kasb etgan *tishini yalang'ochlamoq, tilini qitiqlamoq, o'tirib qolmoq* kabi iboralar asar tilining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qilishi dalillangan;

ijodkorning individual-badiiy uslubini shakllantirishda ironik mazmunning -*cha (Olimcha), -vachcha (shoirvachcha, robotvachcha), -shunos (kallashunos)* qo'shimchalari morfologik; *azakayfiyat, chalafidoyi* kabi leksik usulda subyekt ichki maqsadini yuzaga chiqarish, iztehzoli piching mazmunini yuklash kabi lingvopoetik qimmat kasb etishi misollar asosida isbotlangan;

badiiy matnda qo'llangan laqablar nafaqat komik effektini, balki qahramonlar dardini, og'rig'ini ochib beruvchi poetik vosita ekanligi *Voybolam, Tekturmas, Bexosiyat, Paranji, Oshiq G'arib* kabi muayyan maqsad bilan qo'llangan poetonimlar asosida dalillangan;

Sharof Boshbekov asarlaridagi *intertekstuallik, ellipsis, parsellyatsiya* kabi hodisalarning badiiy matnda emotsional-ekspressivlik hosil qilishi hamda *buyruq qurilmalarning* gender xususiyatlari yoritilgan, shuningdek, *so'roq qurilmalarning* badiiy matnda faqat savol-javob vositasigina emas, balki poetik aktuallikni oshirishda xizmat ko'rsatuvchi muhim omillardan biri ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tilshunosligida muayyan bir ijodkor asarlari tili lingvopoetik tahlil qilinganda til birliklarining badiiy matndagi zarurati, o'rni, imkoniyatlari lingvistik hodisa sifatida ilmiy-nazariy jihatdan alohida ahamiyat kasb etishi asoslangan.

Sharof Boshbekovning badiiy til mahorati, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishiga doir tadqiqot natijalari filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilarning bilim va malakasini oshirishda manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, qo'llanilgan yondashuv, nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, tahlillarning asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Sharof Boshbekov asarlarining lingvopoetik xususiyatlari fonetik-fonografik, leksik-semantik, ekspressiv-sintaktik jihatdan lingvopoetik tahlil qilinishi ishning ilmiy ahamiyatini belgilaydi. Muayyan bir ijodkor asarlarining badiiy til xususiyatlariga bag'ishlangan mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek milliy lingvopoetikasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati ijodkor asarlari lingvopoetik tahlilidan "Lingvopoetika", "Badiiy matnning lingvistik tahlili", "Nutq madaniyati va uslubiyati", "Lingvomadaniyatshunoslik" kabi maxsus kurslarni o'tishda; sohaga oid darsliklar, o'quv-qo'llanmalar, ilmiy risolalar yaratishda foydali bo'lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sharof Boshbekov asarlarining lingvopoetik xususiyatlari tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

badiiy matnda tilning estetik vazifasi muayyan ijodkor asarlari misolida o'zbek tilining istiqbolli yo'nalishlaridan biri lingvopoetika sohasida o'rganilishi

borasidagi qarashlardan; ironiyaning dramatik matn badiiyatini ochishdagi oʻrnini yoritib berish borasidagi tahlillardan, metaforik hodisalarning badiiy matn koʻlamdorligi hamda yozuvchi niyatining tugal ifodalanishidagi oʻrni, badiiy matnda ism va laqablarning asar tilining oʻziga xosligini taʼminlashga xizmat qilishi yuzasidan chiqarilgan xulosalardan OʻzR FA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F1-78 raqamli “Hozirgi globallashuv davrida oʻzbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (vazifaviy uslublar tahlili asosida)” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 27-maydagi 3/1255-1123-son maʼlumotnomasi). Natijada mazkur loyiha yangi ilmiy-nazariy maʼlumotlar bilan boyitilgan;

Sh.Boshbekov asarlarida leksik-semantik birliklar rang-barangligining lingvopoetik ahamiyati haqidagi qarashlar; qargʻish va olqishlarning badiiy matnda xilma-xil poetik maqsadlarning roʻyobga chiqishida ishtirok etishi va gender xususiyatiga koʻra farqlanishiga oid masalalar; badiiy matnni shakllantiruvchi ekspressiv-sintaktik qurilmalardan – intertekstuallik, ellipsis, parsellyatsiya kabi hodisalarning badiiy matnda estetiklik hosil qilishi masalasiga oid xulosalardan OʻzR FA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori institutida 2021–2022-yillarda bajarilgan IL-21071156 raqamli “Antropotsentrik tilshunoslik terminlari izohli lugʻatini tuzish va nashr qilish” (lugʻatning mobil ilovasi va veb saytini yaratish) mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 27-maydagi 3/1255-1123-son maʼlumotnomasi). Natijada mazkur loyiha yangi ilmiy-nazariy maʼlumotlar bilan boyitilgan; ijodkor asarlarining tili, uning oʻziga xosligi, leksik-semantik birliklar, koʻchimlar va ularning lingvopoetik tahliliga oid taklif hamda tavsiyalardan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va maʼrifat” telekanalida efirga uzatilgan “Birgalikda oʻqiyimiz” koʻrsatuvining Sh.Boshbekovga bagʻishlangan sonini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va maʼrifat” telekanali davlat muassasasining 2024-yil 4-apreldagi 01-16/84 sonli maʼlumotnomasi). Natijada tadqiqotdagi maʼnaviy-maʼrifiy fikrlar, ilmiy qarashlarga asoslangan xulosalar telekoʻrsatuv ssenariysini mazmunan boyitgan va mukammallashtirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika hamda 4 ta xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan boʻlib, umumiy hajmi 140 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, predmeti va obyekti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Badiiy matn va unga lingvopoetik yondashuv masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida badiiy asar tiliga munosabat, lingvopoetik yondashuv, bu borada olib borilgan tadqiqotlar xususida fikr yuritiladi. Bobning **“Dunyo tilshunosligida badiiy asar tilining o‘rganilishi”** deb nomlanuvchi birinchi bo‘limida tilshunoslikda mazkur masala bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan, ularga munosabat bildirilgan.

Ma‘lumki, badiiy matn tadqiqi masalalariga XX asrning 20-yillarida alohida muammo sifatida e‘tibor qaratilgan. Rus tilshunosi L.V.Shcherba badiiy asarni tahlil qilishdan maqsad adabiy asarning g‘oyaviy va muayyan hissiy mazmuni ifodalanadigan lingvistik vositalarni ko‘rsatish ekanligini aytgan⁷. Jahon tilshunosligida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab badiiy matnni lingvopoetik jihatdan o‘rganish qizg‘in tus oldi. Lingvopoetika masalalari yuzasidan samarali tadqiqotlar olib borgan V.Zadornova doktorlik dissertatsiyasida lingvopoetika sohasining aniq predmeti, maqsadi va muammolarini yaqqol ochib beradi. Tilshunos: “Matnning lingvopoetik jihatdan o‘rganilishi tilning u yoki bu birligini shunchaki aniqlashga qaratilgan emas, balki badiiy asar ko‘rsatadigan estetik ta‘sirni so‘z yordamida izohlashga yo‘naltirilgandir”⁸, – deb yozadi. A.Lipgartning “Lingvopoetika asoslari” qo‘llanmasida esa badiiy matnni lingvopoetik tadqiq etish nazariyasi va amaliyoti masalalari: lingvopoetikaning antologik holati, unda qo‘llanayotgan metodlarning xususiyatlari, lingvopoetikaning turdosh filologik fanlar – lingvistik stilistika va adabiyotshunoslik bilan aloqasi ko‘rib chiqilgan⁹. Keyingi davr dunyo tilshunosligida badiiy asar tilining o‘rganilishi bo‘yicha izlanishlar davom etmoqda, ayniqsa, bu borada T.Burseva, A.Abdikerimova, G.Kukuyeva, Y.Barisova, L.Krasnikova kabi olimlarning ishlarini alohida qayd etish mumkin¹⁰.

⁷ Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – М., Учпедгиз, 1957. – С. 7.

⁸ Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ... док. филол. наук. – М., 1992. – С. 61.

⁹ Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики: Учебное пособие. – М.: «Диалог-МГУ», 1999. – С. 165.

¹⁰ Бурцева Т. Лингвопоэтика Б.Л.Пастернака и ее эволюция: Автореф. дисс. канд филол наук. – Казан, 1999. – С. 18; Абдыкеримова А.Э. Лингвопоэтика: статусы жана проблемалары. Филология илимдеринин доктору окумуштуулук даражасын алуу үчүн жазылган диссертациянын авторефераты. – Бишкек. 2008, – Б 39; Кукуева Г. Лингвопоэтическая типология текстов малой прозы: Автореф. дисс. канд филол. наук. – Барнаул, 2009.

– С.33; Борисова Е. Художественный образ в английской литературе XX века: Автореф. дисс. канд филол. наук. – Самара, 2010. – С. 43; Красникова Л. Лингвопоэтические особенности стихотворных циклов Т.Мура «Ирландские мелодии» и Байрона «Еврейские мелодии»: Автореф. дисс. канд филол. наук. – М, 2016. – С. 27.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari”** deb nomlanadi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy til muammolari, xususan, bir qancha adiblar badiiy asarlarining lingvopoetikasi masalasiga bag‘ishlangan ko‘pgina tadqiqotlar yaratilgan. Badiiy matnda tilning ahamiyati haqida o‘z davrida Fitrat, Elbek, Oybek kabi ijodkorlar ham qimmatli fikrlarini aytishgan¹¹. Ayniqsa, bu borada Fitratning qarashlari qimmatlidir: “Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlarga ko‘ra olamiz. Ularning jon ozig‘i bo‘lib turgan dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashulalar, qo‘shiqlar bor. Shularning hammasini buyuk bir diqqat bilan xalq og‘zidan chiqqani kabi yozib olish kerak. Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Mashrab, Navoiy, H.Boyqaro, Munis kabi shoirlarimiz asarlari bor. Shularning hammasini qilni qirq yorib tekshiraylik, bir-biriga solishtirib, asosli natijalar olaylik. Mana shu yo‘ldan shu shaklda qurollanib maydonga chiqqanimizda ko‘rilgan ishlar, olingan natijalar – ilmiy bo‘lib chiqadir”¹².

Keyingi yillarda ham o‘zbek tilshunosligida badiiy asarning til xususiyatlarini tadqiq qilishga doir izlanishlar ko‘payayotgani tilimizning bepoyon imkoniyatlarini o‘zida tajassum etgan badiiy asarlarning benihoya ko‘p ekanligidan dalolat beradi. Badiiy matn tadqiqotchilari o‘rinli ta‘kidlaganidek, “Badiiy asar xalq tili o‘zining barcha imkoniyatlarini bor bo‘yicha namoyon qila oladigan, yozuvchining mahorat darajasiga ko‘ra bu imkoniyatlarni to‘lasicha ishga solish mumkin bo‘lgan o‘ziga xos maydondir. Bu imkoniyatlar cheksiz-chegarasiz bo‘lib, muayyan asarda uning ro‘yobi masalalarini o‘rganish, avvalo, yozuvchining badiiy til borasidagi mahoratini, qolaversa, xalq tilidagi ifoda vositalarining boyligini namoyish etishga asos bo‘ladi”¹³.

O‘zbek tilshunosligida N.Mahmudovning lingvopoetika oid qator ilmiy maqolalari bu sohada fundamental tadqiqotlar yaratishga asos bo‘ladi¹⁴. Shuningdek, I.Mirzayev, G.Rixsiyeva, M.Yo‘ldoshev¹⁵ kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida badiiy asar tili lingvopoetik jihatdan u yoki bu darajada tahlilga tortilgan. Ayniqsa, M.Yo‘ldoshevning badiiy matnning lingvopoetik tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyasi bu borada muhim tadqiqot hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar qamrovi, xususan, 2000-yillardan keyin jiddiy tarzda kengayib bordi¹⁶. Ayniqsa, so‘nggi yillarda muayyan bir ijodkorning

¹¹ Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 141; Элбек. Гўзал ёзғичлар. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1924. – Б. 75; Ойбек. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 109;

¹² Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 141.

¹³ Ёўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 2.

¹⁴ Маҳмудов Н. Ойбек шеърлятидаги ўхшатишларнинг лингвопозитикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Shu muallif. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопозитикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36; Shu muallif. Шайхзода сўзининг лингвопозитикасига чизгилар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б. 12-17.

¹⁵ Мирзаев И. Проблемы лингвопозитической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дис... докт. фил. наук. – Ташкент, 1992; Рихсиева Г. Лингвопозитик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2003. – №2. – Б. 84-86; Ёўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида): Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент: ТАИ. 2000. – Б. 26.

¹⁶ Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърлятининг лингвопозитик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Неъматова Д. Чўлпон публицистикасининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Неъматова Д. Чўлпон публицистикасининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004;

tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo‘llashdagi o‘ziga xosliklarini ko‘rsatishga bag‘ishlangan juda ko‘p tadqiqotlar¹⁷ yaratilayotgani quvunarli holdir. Ammo bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar doirasi nechog‘lik katta bo‘lmasin ular adabiyotimiz tarixidagi alohida o‘rin tutadigan asarlarning barchasini to‘liq qamrab olgan deb bo‘lmaydi. Jumladan, o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan Sharof Boshbekov asarlari lingvopoetik jihatdan haligacha to‘liq o‘rganilmagan. Adib asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini monografik aspektda o‘rganish orqali o‘zbek tilining boy ifoda imkoniyatlari aniqlandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Sharof Boshbekov asarlaridagi fonetik-fonografik va leksik-semantik vositalarning lingvopoetik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bobning “**Fonetik-fonografik vositalar lingvopoetikasi**” deb nomlanuvchi bo‘limida adib ijodida unlilarni qavatlash, so‘zni bo‘g‘inlarga ajratish, so‘zni grafik bo‘g‘inlash, nutq jarayonidagi uzilishlar, so‘zni noto‘g‘ri, buzib talaffuz qilishning turli poetik vazifalari xususida fikr yuritiladi.

Ma‘lumki, unli harflarning orttirilishi asar qahramonining ruhiyatini va ayni damdagi holatini tez va tushunarli tarzda aniqlab olishga yordam beradi. Masalan: Qo‘chqor. (*ko‘zlarida yosh o‘ynab*) **Yolg‘oon!.. Men hech qachon yig‘lamaganman!..**

Alomat. Yig‘lagansiz. Faqat ko‘zingizning narigi tomoni bilan yig‘lagansiz. Ko‘zyoshingiz tashqariga emas, ichingizga oqqan.

Keltirilgan parchadagi *yolg‘oon* so‘zida unlilarni qavatlantirish orqali anglashilgan turli emotsional ma‘no nozikliklari o‘quvchiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi, nutqdan aynan ko‘zlangan maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ijodkor so‘z tarkibidagi unlilarni cho‘zishdan tashqari so‘zni grafik bo‘g‘inlashdan ham unumli foydalangan. Badiiy matnda poetik aktuallashuv qahramonning individual talaffuzini aynan qayd etish – grafon usuli orqali ham amalga oshirilishi mumkin¹⁸. Bu kabi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib, har bir bo‘g‘inni kuchli talaffuz qilish orqali: *alohida ta‘kid, hazil-mutoyiba, hissiy-emotsional holatning yuqori darajadiligini ifodalash, noroziligini ko‘rsatish* kabi ma‘nolar yuklanadi. Mazkur misolda ham so‘zni alohida bo‘g‘inlab talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikdan noroziligi kuzatiladi. Masalan: *To‘satdan Shavkatning g‘azabi qaynab, yig‘lamsiragancha baqira ketdi: **Tash-lab ketarkanman, a, nega tash-lab ketarkanman!?** Axir bu yorug‘ jahonda shundan boshqa hech kimim yo‘q-ku!..*

Ёкуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан ... д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 2007.

¹⁷ Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017; Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020; Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2020; Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Урганч, 2022; Якубова М. Эркин Самандар шеърининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Урганч, 2022; Yuldashev J. Usmon Nosir she‘riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023; Norova Sh. Asqad Muxtorning badiiy til mahorati: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2024. – B. 23.

¹⁸ Юлдашев М. Бадий матн лингвопоэтикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 42.

O'ylab gapiryapsizmi, qandoq tash-lab ke-taaay!? Men... haligi..."Tashlab ketasiz"mas, topshirib ketasizmi demoqchiydim. ("Falakning gardishi", 420-bet)

Badiiy matnda grafik usulni yuzaga keltirishda uzilishlar (apoziopeziz) poetik jihatdan aktuallashadi, ya'ni tegishli badiiy ma'nolar kasb etadi. Bunda ba'zan asar qahramoni turli hissiy holatlar bilan bog'liq holda aytmoqchi bo'lgan fikrning aniq va o'rinli ifodasi uchun zarur bo'lgan so'zni qidirib qoladi. Ana shu so'z izlash jarayonida, tabiiyki, nutq oqimida uzilishlar bo'ladi. Bu uzilishlar, to'xtamlar badiiy matnda ko'pnuqta vositasida ta'kidlanadi¹⁹. Bir qarashda bunday uzilishlar matnning ma'no butunligiga putur yetkazganday ko'rinsa-da, poetik aktuallashuvga ko'ra matn integratsiyasining kuchayishida ishtirok etadi. Quyidagi parchada qahramonlarning murakkab ruhiy holati – maktab yoshidagi bolalarning ota-onalari yo'l qo'ygan xatolarini kutilmaganda bilib qolishlari natijasidagi qalblaridagi kuchli og'riq ularga gaplarni to'liq ifodalashga imkon bermagan. Ekspressivlikni oshirish maqsadida o'zaro yaxlit bir gap bir nechta qahramonlar tilidan uzilishlar bilan ifodalanadi. Ular tomonidan aytilgan uzuq-yuluq gaplar jamlanib bir butunlikni ifodalagan va lingvopoetik ahamiyat kasb etgan. Masalan:

Misriyo. *O'tkir...*

O'tkir. *...shu yerdaman...*

Soli. *...ablah ular...*

Misriyo. *...undaymas...*

Uchqun. *...kimlar?..*

O'tkir. *...ota-onalar...*

Uchqun. *...bobom yaxshilar...*

Misriyo. *...hamma yaxshi...*

Soli. *...demak, men ham yaxshiman?...*

Misriyo. *...ha, hamma...*

Soli. *...faqat, bilmasang, ko'rmasang, sezmasang yaxshi...*

Misriyo. *...gap nimani ko'rishda, Soli...* ("Tikansiz tipratikanlar", 68-bet)

Sh.Boshbekov asarlaridagi qahramonlarning so'zlarni buzib talaffuz qilish holatini quyidagicha tasnif qilish mumkin: 1. Aynan komik effekt yaratish uchun qahramon nutqida o'ziga xos, alohida e'tibor tortadigan takrorlanuvchi birliklardan foydalanilgan: Qo'chqor. *Olimtoy, lekin ja savob ish qilyapti-da. **Rakatopsin.** Mana xotin-xalaj, bola-chaqa yil bo'yi daladan beri kelmadi. Na dam olish bor, na bayram bor. Ertadan kechgacha ish, ish, ish!* ("Temir xotin", 159-bet) Asarda ayni bir qahramon nutqida *baraka toping* ifodasi *rakatoping* shaklida, so'zning birinchi bo'g'inining tushirib qoldirilishi qahramonning individual xususiyatini, muomala madaniyatini ko'rsatish maqsadida qo'llangan va ushbu jumla ayni damda pretsedent birlik hisoblanadi. Ayrim ijodkorlar personajlari nutqida ma'lum maqsadda bunday so'zlarni o'sha qahramonning "tashrif qog'oziga" aylantira olishgan. Jumladan, G.G'ulomning "Shum bola" qissasidagi Sariboyning *innankeyin*, A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" idagi Solih Mahdumning *habba* kabi so'zlar o'zbek lingvomadaniyatida pretsedent birlikka aylangan va bevosita

¹⁹ Юлдашев М. Бадий матн лингвопoeтикаси тадқиқи: Монография. – Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ, 2019. – Б. 192.

ular mazkur asarlarga yoki qahramonlarga ishora qiladi. Sh.Boshbekovning ham badiiy matnga olib kirgan *rakatoping* soʻzi qahramon tabiatini favqulodda individuallashtirishga xizmat qilgan.

2. Oʻzlashma soʻzlarning hali oddiy xalq orasida keng yoyilmaganligi, notanishligi, talaffuz koʻnikmasiga ega emasligi sababli baʼzi soʻzlarni buzib talaffuz qilish: Qoʻchqor. *Hech kim mehnatdan oʻlmaydi, Olimtoy...*

Olimjon. *Ana, oʻldi-ku!!! Yana nima kerak sizga?! Siz – inkvizitorsiz!*

Qoʻchqor. *Nima-zitor?..*

Olimjon. *Inkvizitor!*

Qoʻchqor. *Yoʻgʻ-e, Olimtoy inkvizitor emas, mexanizator de...* (“Temir xotin”, 187-bet)

Ijodkor qahramon nutqida soʻzni notoʻgʻri talaffuz qilishga oʻziga xos tarzda yondashgan. Bunda “nima?” soʻroq olmoshi bilan birgalikda qoʻllash orqali, asosan, emotsional-ekspressiv maqsad koʻzda tutilgan. Yaʼni qahramon xarakteriga xos jihatlari: oddiy, sodda qishloq traktorchisi ekanligini oʻquvchi favqulodda tez anglab oladi, uning ijtimoiy ahvoli haqida boshqa soʻz orqali taʼrif berishga hojat qolmaydi. Yana uning tabiatidagi past ketmaslik, soʻzamollik boʻrtib turadi. Ayniqsa, *inkvizitor* va *mexanizator* soʻzlarining maʼnolarini farqlamagan holda suhbatdoshini xato gapirganlikda ayblab, uning nutqiga tuzatish kiritishga urinish holatidan komik effekt hosil qilingan.

Dramaturg asarlarida aksar hollarda fonetik-fonografik vositalardan – *unlilar qavatlanishi, uzilishlar, soʻzlarni grafik boʻgʻinlash* kabi hodisalarning ketma-ket, ayni bir matn tarkibida qoʻshaloq holda kelishining ham guvohi boʻlamiz. Bu esa badiiy matnning lingvopoetik jihatdan yanada kuchli taʼkid olganini, hissiy-emotsional holatning meʼyordan ortiq ekanligini anglatadi. Masalan: Oʻtkir. *Tekingamas... Tekingamaas! Qimmat-ku, dada! Judayam qimmaat! Da-da, oching! Oching, da-da! Da-daaa!!!* (“Tikansiz tipratikanlar”, 66-bet)

Xullas, Sh.Boshbekov asarlaridagi fonetik-fonografik vositalarning ahamiyati beqiyos boʻlib estetik kuchi, lingvopoetik vazifasi, taʼsirchanligi bilan yozuvchining maʼlum bir koʻzlangan maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bobning “**Leksik-semantik vositalar lingvopoetikasi**” deb nomlanuvchi ikkinchi boʻlimida leksik-semantik vositalarning shakl va maʼno-munosabatiga koʻra turlari, koʻchimlar, ibora, shevaga xos soʻzlar, dagʻal soʻzlarning estetik vazifalari yoritilgan.

Badiiy matn tahlilida boshqa birliklar qatori soʻzlarning shakliy va maʼno munosabatiga koʻra turlari ham muhim oʻrin tutadi. Ijodkorlar badiiy maqsadini estetik jihatdan jozibador tarzda ochib berish uchun soʻzlarning doimiy isteʼmoldagisini emas, balki estetik salmogʻi yuqori shaklini qoʻllashga harakat qiladi. Atoqli tilshunos N.Mahmudov sinonimlar haqidagi maqolasida quyidagi fikrni ilgari surgan: “... tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini taʼmin etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo maʼnodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining koʻlamdorligidir”²⁰. Sh.Boshbekovning sinonimlardan

²⁰ Маҳмудов Н. Синонимлар – тил зангинлиги ва рангинлиги кўзгуси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент,

foydalanish mahoratini tadqiq qilishda ikki muhim jihatni: ma'nodosh so'z(lar)dan ifodalanayotgan ma'no-mazmun uchun eng maqbulini tanlashni; ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zlarni badiiy tasvir maqsadiga hamohang holda qo'llashni²¹ e'tiborga olish lozim bo'ladi. Har ikki jihat Sh.Boshbekov ijodida birdek kuzatilishini ko'rishimiz mumkin. Masalan: Erkak. ...*Nimani o'ylayapsiz, deyaipman?*

Ayol. *Ha... Menmi? Ko'rib turibsiz, o'zim bu yerdan tusholmayapman. Shu meni ko'tarib tushiolarmikinsiz, shuni o'ylayapman. Yo'q, ko'tarolmasangiz kerak, ramaqijongina ekansiz. Hay, bilmadimov... Buning ustiga qoningiz kam.* ("Taqdir eshigi", 28-bet)

Keltirilgan matnda muallif badiiy ta'sirchanlikni oshirish maqsadida eti qochgan, vazni me'yordan kam mazmunini ifodalovchi *ozg'in* so'zining sinonimlar qatoridagi *oriq, qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, ramaqijon, qoqsuyak, log'ar* kabi so'zlardan boshqalariga qaraganda belgi darajasi yuqori bo'lgan *ramaqijon* so'zini tanlaydi. Bu so'zda mazkur ma'no obrazli tarzda ifodalanib, holdan toyganlik ma'nosi kuchli ta'kid oladi hamda so'zlovchining kamsitishdan iborat shaxsiy munosabati ham anglashiladi²². Shuningdek, *ramaqijon* so'ziga qo'shilgan ozaytirma daraja hosil qiluvchi *-gina* qo'shimchasi belgining yanada kuchsizlanishiga urg'u berish bilan birga achinish mazmunini qo'shgan. Bu esa qahramon(erkak)ni atay so'z orqali kamsitib o'z maqsadiga yetish uchun ayyorlik qilayotgan ayol nutqining ishonarli va ta'sirchan chiqishini ta'minlagan.

Ijodkorning ikkinchi turdagi sinonimlardan foydalanishi bir so'zning ayni takrori natijasida vujudga keladigan nutq kambag'alligi va rangsizligining oldini olishga xizmat qilgan. Quyidagi matnda *haqorat qilmoq, tahqirlamoq* fe'llari kimnidir juda ayovsiz kamsitish hissini uyg'otish kabi salbiy bo'yoqdorlikka ega ekanligi va ma'noning o'sish darajasi bilan o'zaro farqlanadi. Kishining or-nomusini, qadr-qimmatini pastga uradigan, tahqirlovchi xatti-harakat yoki gap-so'zga nisbatan ham "...*rahbar bo'lgandan keyin koyiydi-da*" qabilidagi kamsitilishlarni yengil koyishga yo'yishi orqali qahramonning qadr-qimmatidan mahrum qilinib, mutelikka allaqachon ko'niktirilganiga ishora bor. Yonma-yon qo'llangan salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan sinonimlar esa badiiy tasvir va tasavvurning mukammalligini ta'minlagan. Masalan: Alomat. *Biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Birovga gapingiz o'tadimi? ...To'y ma'rakalarda poygakda o'tirasiz! Ulug'larga tayyorlangan dasturxonga yaqinlasha olmaysiz! Joyingizni bilib o'tirishga majbursiz, chunki "mehnatkash" degan mansab bilan to'rga chiqolmasligingizni yaxshi bilasiz! Shlyapa kiyib, galstuk taqqan ketmondasta ham sizni haqoratlashi, tahqirlashi mumkin! Alam qilmaydimi?*

Qo'chqor. *Ha endi, rahbar bo'lgandan keyin koyiydi-da...* ("Temir xotin", 181-bet)

Mohir ijodkor sinonimlarning yuqorida sanab o'tilgan har ikki usulidan ham foydalangan. Bu kabi maqsadli qo'llangan sinonimlar yordamida badiiy matndagi

2021. – № 4. – B. 3.

²¹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 185.

²² O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. I jild, – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – B. 459.

soʻzning estetik jilosi, ijodkor asarlari tilining badiiy jihatdan mukammal boʻlishi taʼminlangan.

Antonim juftliklar ham badiiy nutqning ifodaliligini, taʼsirchanligini taʼminlashda ijodkor uchun keng imkoniyat vazifasini oʻtagan. Alomat. *Yigʻlagansiz. Faqat koʻzlaringizning narigi tomoni bilan yigʻlagansiz. Koʻzyoshlaringiz tashqariga emas, ichingizga oqqan. Mana mening ichim toʻla temir-tersak, sizning vujudingiz esa faqat va faqat koʻzyoshidan iborat. Lim-lim yosh...* (“Temir xotin”, 26-bet)

Sh.Boshbekov zid maʼnolilikning oʻziga xos namunalarini yaratgan, voqea-hodisalar, aqliy-ruhiy jarayonlar oʻrtasidagi zidlikni boʻrttirib koʻrsatishga erishgan. Yuqoridagi matn orqali ham har qancha ezilsa-da, koʻzyoshini koʻrsatmaydigan matonatli, gʻururli oʻzbek erkagi obrazi qiyofasidagi feʼl-atvorni – bir turkumga oid soʻzlar oʻrtasidagi maʼnoviy zidlikni ifodalagan *ichkariga-tashqariga* antonim juftligi orqali badiiy mahorat bilan koʻrsatib bergan. Badiiy matnda ifodalilik, ohangdorlik, komik effektни hosil qilish maqsadida paronimlardan foydalanish anʼanasi mavjud. Sh.Boshbekov asarlarida bu vositadan komik effekt hosil qilish maqsadida oʻrinli foydalanilgan. Masalan: *Endi turib oʻtirsangiz ham boʻlaveradi, koʻtarilib boʻldik, – dedi. Fayzulla uning qoʻlidan tortib...*

– *Siz ham putyovka bilan ketyapsizmi, uka?* – dedi Qoʻzivoi sal oʻziga kelib.

– *Bizniki biznes, – erinchoqlik bilan javob qildi Fayzulla.*

– *Firmaning ishlari bilan ketyapman.*

– *Iye, sizam fermamisiz?* – dedi Qoʻzivoi qarindosh chiqib qolganday quvonib.

– *Bizda ham Qarshi ferma degani bor... Oʻsha yubordi-da, boʻlmasa menga nima...*

– *“Ferma”mas, “firma!”* – taʼkidladi Fayzulla. (“Musofir boʻlmaguncha”, 456-bet)

Mazkur parchada qahramon *firma* va *ferma* paronimlarini farqlay olmasligi sababli soʻz maʼnolarini qorishtiradi, kulgili vaziyatga tushadi. Badiiy matnda paronamaziya orqali kulgili vaziyatni yuzaga keltirish uchun ijodkor tomonidan atayin oʻxshash talaffuzli *internat – internet, padar – radar* (“Musofir boʻlmaguncha”); *sanʼat – sanoat* (“Charxpalak”) kabi soʻzlardan mohirona foydalanilgan.

Koʻchimlar ham nutqning ifoda imkonini taʼminlovchi, yozuvchining muayyan maqsadini amalga oshirishga xizmat qiluvchi vositalardir. Koʻchma maʼno hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri metaforadir. Ijodkorning oʻziga xos, takrorlanmas metaforalar qoʻllagani tilning ich-ichiga kirib borganidan dalolat beradi. Masalan: Turdi. *Peshonadagini koʻramiz. Birinchidan, bilasan, enam kasal yotibdi. Qanday qilib tashlab ketaman? Ikkinchidan, karmon ham kasal.* (“Manzil”, 632-bet)

Keltirilgan matndagi *kasal* soʻzining oʻz maʼnosi, yaʼni onasining jismoniy xasta ekanligini nazarda tutgan boʻlsa, ikkinchi jumla orqali esa choʻntagi boʻsh – pulsiz, moddiy ahvoli ham ogʻir, chorasiz ekanligini anglashga yordam beradi: “Taqdir eshigi” intellektual komediyasida esa xuddi shu *kasal* soʻzini nosoz – bir

ishlab, bir ishlaymay qoladigan qulfga nisbatan ham ko'chma ma'noda qo'llaydi. Bu o'rinda ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda bir so'zni qo'llash natijasida ijodkor tomonidan *xususiy-muallif metaforasidan* tashqari so'z o'yini ham hosil qilinadi: Erkak. *Narigi tomondan bir urinib ko'rmaysizmi? Ichkaridan ochilmayapti-da, qulfi kasal...(ayol tomonga qarab) egasiyam!* ("Taqdir eshigi", 8-bet)

Sh.Boshbekov ko'p ma'nolilik hodisasining imkoniyatlaridan unumli foydalangan. Quyidagi matnda *silliq kuylamoq* birikmasi sinestetik metafora hisoblanib, o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi. Boshqa-boshqa tana a'zolari bilan idrok qilinadigan harakatlarning birlashtirilishi orqali yuzaga chiqarilgan bu ko'chimda silliq bo'lmagan narsa-buyum qo'lni tirnaganidek, silliq kuylanmagan qo'shiqning ham quloqni tirnashiga ishora bor. *Ashulaga bora-bora hamma jo'r bo'ladi. Buni ko'rib xormeysterning hayratdan og'zi ochilib qoladi. Chunki shuncha yillardan beri bularning hamnafaslikda, bu qadar silliq kuylaganlarini ko'rmagan edi.* ("Tentak farishtalar", 221-bet) Dramaturg bunday metaforalashgan nutqlardan mahorat bilan foydalanadi va fikrlarini obrazli tarzda ifodalaydi.

Sh.Boshbekov asarlarida metonimik ko'chimlar ham badiiy maqsadni ifodalash uchun xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin: Qumri. *Muhiddin akaning o'g'li ikkita o'rtog'i bilan armiyadan kelgan ekan. Otpuskaga. Avval uch kishi bo'lib o'shalar chiqishdi. Hech bo'y bermadingiz.*

Qo'chqor. *Hm, armiya ham bas kelolmadi degin?* ("Temir xotin", 149-bet)

Ushbu matnda qo'llangan "*armiya*" so'zi orqali dramaturg qahramonning tabiatidagi biroz maqtanchoqlik, o'ziga yuqoridan turib baho berish kabi jihatlar mavjulgiga ishora qiladi. Uning biror o'rinda bu tabiatini dramaturg ochiqcha so'z bilan aytmaydi, ammo lingvopoetik imkoniyatlardan katta mahorat bilan foydalanadi.

Sh.Boshbekov asarlarida tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni saralab qo'llay olgan. Masalan: *tiliga osilmoq, toshini termoq, o'tirib qolmoq, og'zi mahkam, dasturxon qilmoq, o'takasi o'nga bo'linmoq, ko'pga kelgan to'y, tilini qitiqlamoq, tishini yalang'ochlamoq, gapni achchiq ichakday cho'zmoq* kabi. Ijodkorning iboralardan foydalanishdagi mahoratini o'rganishda uch jihatga e'tibor qaratdik: ibora tarkibidagi ba'zi so'zlarni almashtirish; ibora tarkibini kengaytirish; iboralarni qo'llashdagi individuallik. Ta'kidlash kerakki, ko'p o'rinlarda qahramonlar tabiatidan, ruhiy holatidan kelib chiqqan holda iboralarga qayta ishlov berilgan. Badiiy matnda bu kabi iboralar qayta ma'no nozikliklari bilan to'yintirilib, sayqallanadi, poetik aktualligini oshiradi. Muallif quyida keltirilgan parchada kulmoq so'zining o'rniga salbiy ma'no qirralaridan – *tirjaydi, iljaydi, irshaydi* kabi leksik sinonimlardan birortasini qo'llash o'rniga iborani sinonim sifatida matnga olib kiradi. Ma'lumki, "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" tarkibida *kulmoq* so'zining salbiy mazmunini ifodalovchi *tishining oqini ko'rsatmoq*²³ iborasi mavjud. Ammo dramaturg tildagi tayyor birlikdan emas, mazmunan yuqoridagi turg'un birikmadan ham kuchli salbiy ma'no ifodalaydigan "*tishini yalang'ochlamoq*" birikmasini qo'llaydi. Natijada matndagi ushbu birlik

²³ O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B. 501

zimmasiga kuchli nafrat mazmunini ifodalovchi alohida lingvopoetik vazifa yuklanadi. Masalan: *Nihoyat, Binafsha dadasidan ko'zini uzib, yerga qaragancha stol tomon kela boshladi. Uyatdan qizarib, nomus o'tida kuyib kelayotgan qizga oradagi masofa juda uzoq tuyuldi. Stolga yaqinlashib, zirakni qulog'idan yecha boshladi. Semiz, pakana ayol tilla tishlarini yalang'ochladi. Shavkat bir joyi sanchganday aftini bujmaytirdi.* (O'sha asar, 438-bet)

Xalq iboralarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Ular orasida nisbatan keng tarqalgan "umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullar"ni qayd etish mumkin²⁴. Tilning lug'at leksikasida *dasturxon qilmoq* – bir gapni har qayerlarda har kimlarga gapirib, *doston qilib yurmoq* – iborasi²⁵ mavjud. Quyidagi parchada bu ibora *butun o'zbekning dardini* birikmasini kiritish yo'li bilan kengaytirilgan, shu tarzda qayta ishlangan iboraning badiiy salmog'i sezilarli darajada ortgan: Olimjon. (*Alomatga qarab turib*). *Iye, bu o'chib qopti-ku...*

Qo'chqor. *Iye!.. O'chib qopti, deganing nimasi?! Men shuncha gapni kimga gapirdim bo'lmasam? Butun o'zbekning dardini dasturxon qilib o'tiribman! (xafa bo'lib) Doim shu – bizga o'xshagan odam gapirsa, yo hech kim eshitmaydi, yo eshitadigani temir chiqadi...* ("Temir xotin", 159-bet)

Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqida makon va zamon birligi tamoyili muhim hisoblanadi.²⁶ Sh.Boshbekov shevaga xos so'zlardan – mahalliy ruhni aks ettirish va asar qahramonining nutqini individuallashtirish maqsadida foydalanadi. Badiiy matnda shevaga xos so'zlar guruhi, shuningdek, shevaga xos talaffuz va morfologik shakllar ham diqqatga sazovor bo'lib, *ena* (ona), *chakki* (suzma), *lo'kkavoy* (mototsikl), *kunbotish* (g'arb), *opovsi* (*murojaat shakli*), *yozyvos*(*yozyapsiz – grammatik shakl*) kabi hududiy chegaralangan so'zlar muallif badiiy niyatining aniq va to'la namoyon bo'lishi uchun zamin yaratgan.

Milliy tilning leksik sathida haqorat, do'q-po'pisa ma'nosida qo'llanuvchi dag'al so'zlar mavjud bo'lib, umumxalq tilini bulardan ayro holda o'rganib bo'lmaydi. Badiiy matnda qahramon tabiatining muayyan qirralarini bo'rttirishga yordam bergan dag'al so'zlar tarkibiga kiruvchi qarg'ishlardan ham ijodkor poetik maqsadlarda foydalangan. Quyidagi matnda ketma-ket alliteratsiyaga asoslangan tovush uyg'unligi ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan: Halima xola. *Xudoyo xudovando tilginang tanglayingga yopishib qolsin-u, qishlog'imiz sen vabodan qutilsin, omin, Ollohu akbar! Xudo seni tilsiz, jag'siz qilib yaratsa, haqqi ketarmidi, a! Iloyim, yashiling jarda, qiziling qirda qolsin, sen yetimcha – yetti kulchani! Tilingga tersak chiqqur!* ("Tushov uzgan tulporlar", 78-bet) Matndagi *qiziling qirda qolsin qarg'ishining* "q" tovushi, *tilingga tersak chiqqur* qarg'ishining "t", *yetimcha yetti kulcha* qarg'ishining esa "y" tovushi bilan uyg'unlashishi o'ziga xos ohangdoshlik kasb etadi, o'quvchiga estetik zavq ulashadi.

²⁴ Bu haqda qarang: Ўўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 215.

²⁵ Ko'rsatilgan manba. – B. 131.

²⁶ Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 26.

Yozuvchining mahoratini belgilovchi jihatlaridan yana biri xalq tilidagi qoliplashgan birliklardan to‘g‘ri va o‘z maqsadiga uyg‘un foydalanish bilan belgilanadi. Bilamizki, xalq tilida *mis chiqmoq* iborasi mavjud. Bu ibora – asl mohiyati, asl qiyofasi fosh bo‘lmoq ma’nosida ishlatiladi²⁷. Muallif esa iboraning tarkibini kengaytirish orqali qarg‘ish ifodalovchi kontekstda qo‘llaydi. *Mis chiqmoq* iborasining *mis+ginang chiqqur* tarzidagi transformatsiyasi yolg‘onning oshkor bo‘lishiga umidni ta’kidlaydi. *-gina* affiksi ta’kidni kuchli tarzda ifodalaydi. *Iloyo* undov so‘zining qo‘shilishi esa so‘zlovchi istagini yanada kuchaytirishga, frazeologik birlikning ayollar nutqidagi qarg‘ishga xoslanishini ta’minlashga xizmat qilgan. Masalan: *Aqida. Ahamiyati bor-da, qoqindiq, ahamiyati bor! Oftob o‘lgur yozgan bo‘lsa mayli, hisob bir-u bir bo‘pti. Anavi, iloyo misginang chiqqur Kumush yozgan bo‘lsa, boshqa gap. O‘zi sal mundayroq. G‘ilay. “Voy salom bersam, alik olmaysiz”, deydi! Gapini qarang! Bir ko‘zi Do‘mbirovodga qarasa, bir ko‘zi Achavotga qaraydi – kimga salom berganini it biladimi?*

Ushbu matndagi *g‘ilay* parsellyati haqida ham alohida to‘xtalish zarur. *G‘ilay* leksemi mazmunan haqoratga xoslangan, qaraganda ko‘z qorachiqlari bir tomonga yo‘nalmaydigan, to‘g‘riga qaray olmaydigan, ko‘z soqqasi qiyshiq o‘rnashgan²⁸ kishilar uchun ishlatiladi. Asardagi *Aqida* nutqida esa *g‘ilay* salbiy munosabatni kuchli ifodalovchi leksik birlik sifatida qo‘llanadi. Muallif *Kumushning g‘ilay* ekanligini aytish bilan kifoyalanmaydi. Avval gapning sintaktik strukturasi *g‘ilay* aniqlovchisini alohida gap – parsellyatsiya sifatida chiqaradi. Shuning o‘ziyiq alohida e’tiborga molik badiiy yuk mavjudligini ko‘rsatadi. *Bir ko‘zi Do‘mbirovodga qarasa, bir ko‘zi Achavotga qaraydi* tarzida *g‘ilaylikni* aniqlashtirib, *Do‘mbirobod* va *Achavot* toponimlarining qo‘llanishi orqali qahramonning muayyan hududga mansubligini ham ta’kidlaydi.

Adib asarlarida ayollar nutqidagi dag‘al so‘zlarning o‘ziga xosligini ta’minlaydigan xususiyatlardan biri sinonim so‘zlarning qatorlashib qo‘llanishi, obrazli ifodalar, yuklama, turg‘un birikmalardan foydalanish holatlari ko‘proq kuzatiladi. Ular nutqining eng xarakterli jihatlaridan yana biri yozg‘irish, nola qilish xususiyatining yetakchi bo‘lishidir. Erkaklar nutqida esa, asosan, so‘kishlar, qo‘pol va haqorat so‘zlar ko‘proq ishlatilishi bilan farqlanadi. Ijodkor asarlaridagi muayyan millat yoki barcha uchun tanish bo‘lgan qarg‘ish, so‘kish, qasamlarning personajlar nutqi jozibadorligini oshirish holatlarini ko‘plab misollarda ko‘rish mumkin. Ammo dramaturg tomonidan qahramonlar nutqida yangi yasalma va topilmalar ham qo‘llanganining guvohi bo‘lishimiz, *yashiling jarda, qiziling qirda qolsin, yer ursin, padariga qasir-qusur, Toshkent ko‘rmagan* kabi birliklarni ijodkorning individual uslubi sifatida baholash mumkin. Ayniqsa, *padariga qasir-qusur* nihoyatda original topilma bo‘lib, *padariga la‘nat* yoki *padariga qusur* shaklida mavjud bo‘lgan dag‘al so‘zlarning sharofona ifodasidir. *Padariga la‘nat* shunchaki salbiy subyektiv bahoni ifodalaydi va tilda tayyor holda mavjud bo‘lgan birlik qahramon nutqida qo‘llanadi. *Padariga qasir-qusur* shaklida esa haqoratdan ko‘ra komik effekt birinchi o‘ringa chiqadi. Uni eshitgan odam so‘zlovchining

²⁷ O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 313.

²⁸ O‘zbek tili izohli lug‘ati. VI jild, – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 527.

adresatga munosabatida kuchli nafratni sezmaydi. Balki, kulgi aralash munosabatni his qiladi. Yozuvchining mahorati har bir qahramonning nutqi orqali xarakterini ham ochib berishda ko‘rinadi.

Ushbu bobning “**Ism va laqablarning lingvopoetik xususiyatlari**” deb nomlanuvchi uchinchi bo‘limida ijodkor asarlarida so‘zlovchi nom²⁹lardan – *Tesha, O‘roqvoy* (“Tushov uzgan tulporlar”); *Qo‘chqor, Qumri, Bozortoy, Alomat, Olimjon* (“Temir xotin”); *Qo‘zivoy, Turdi, To‘ychivoy, Qarshiboy, Anqaboy* (“Musofir bo‘lmaguncha”) kabi ismlar bevosita ijodkorning maqsadini ideallashtirish vositasi bo‘lganiga misol bo‘ladi. “Temir xotin” dramasi qahramoni *Qo‘chqor* nomi uch xil lingvopoetik maqsadda qo‘llanadi, har uch o‘rinda ham bu nom boshqa ismga o‘zgartirilganda bu tafovut yaqqol seziladi: *Bu uyda men kimman o‘zi, a? (baqirib). Qo‘chqormanmi yo Qo‘chqormasmanmi?! Qo‘chqorman!!!* Oiladagi erkak ekanligiga va aytgani so‘zsiz bajarilishi kerakligiga ishora, ya’ni – *Oilaning erkagimanmi yo erkagimasmanmi? Erkagiman!!!* degan mazmun oldinga chiqadi. *Qo‘chqor* ismidan boshqa bir ism aynan oilaning erkak kishisi ekanligini ta’kidlash mazmunini bermasdi, ijodkor ko‘zlagan maqsad yuzaga chiqmasdi. Drama tarkibidagi ushbu nom matn tarkibidagi uzvlar, voqealar bilan poetik aktuallashgan. O‘ziga xos, yangi, qo‘shimcha ma’no-mazmun kasb etgan, badiiy-estetik butunlikning faol unsuriga aylanib bo‘lgan. Badiiy matn tarkibiga bunday nomlar qo‘llanishi matnlararo aloqadorlikning mukammalligiga va muallifning badiiyat bobidagi mahoratiga bog‘liqdir. Bunday aloqadorlik doirasida tugallikka ega bo‘lgan biron-bir nomni boshqa bir nomga o‘zgartirib bo‘lmaydi. Agar chiqarilsa yoki o‘zgartirilsa, matnning butunligiga putur yetadi. Shuningdek, *Qumri, Bozortoy, Tesha, O‘roqvoy, Ergashvoy* kabi ijodkorning maqsadini ideallashtirgan ismlar qahramonlar holatini yorqin ifodalashga xizmat qilgan. Masalan: –*Ha, Ergash, yuribsanmi haliyam onangga ergashib?*

Ha, tuzik, tuzik... Bozorboy aka, bozorda nima gaplar? Biz cho‘lma-cho‘l, tog‘ma-tog‘ yuraverib hech nimadan bexabarmiz. Narx-navo o‘sha-o‘shami?.. Sen yaxshimisan Turdi? Nima?.. Turibsan? O‘tir, bo‘lmasa turaver...

– *To‘ychivoy, to‘y qachon? Ay, sen pensiyaga chiqib uylanasanov... Ikkalasini bitta qilib, a? Umring uzoq bo‘lsin ishqilib...* (“Musofir bo‘lmaguncha”, 462-bet)

Quyidagi matndagi *Bozorvoy* ismi ham muayyan maqsad bilan qo‘llangan antroponim hisoblanadi. Hatto uning ismiga bir o‘rinda *-voy*, bir o‘rinda *-toy* antropoindikatorining qo‘shib aytilishi badiiy yuk olgan. Har ikkalasi ham *erkalash-suyish* ma’nosini ifodalaydagan qo‘shimchalar bo‘lsa-da, uslubiy qo‘llanish jihatdan dramaturg bu qo‘shimchalarni ayro holda qo‘llaydi. O‘z tengquri yoki o‘zidan kichiklar ismiga nisbatan “-toy” qo‘shimchasini qo‘shsa, turmush o‘rtog‘iga hurmat nuqtayi nazaridan bu qo‘shimchani qo‘shib chaqirishni ijodkor ep ko‘rmaydi va uning ayoli tilidan “*Bozorvoy aka*” deb chaqirilishini munosib ko‘radi. Masalan: *Qo‘chqor. Bozortoy! Ho‘, Bozortoy!*

²⁹. Анданиязова Д.Р. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 60.

Sharofat. (*devor osha mo'ralab*). *Labbay?*

Qo'chqor. *A? Ha... Bozortoy keldimi?*

Sharofat. **Bozorvoy akam** keluvdilar, ikki qopgina savzi olib, yana bozorga ketdilar. (O'sha asar, 163-bet)

Laqablarning badiiy matndagi xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilining boy imkoniyatlarini yanada chuqurroq yoritishga yordam beradi Ta'kidlash kerakki, laqablarning badiiy matndagi lingvopoetik vazifalaridan biri komik effekt hosil qilishidir. Bunda ijodkor subyektiv munosabatini kuchli sarkazm orqali yoki aksincha ifodalashi mumkin. Ammo Sharof Boshbekov tomonidan badiiy matnda qo'llangan laqablar faqat komik effektini emas, balki qahramonlar dardini, og'rig'ini ochib berish uchun poetik vosita vazifasini bajargan va obrazlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqolroq tasvirlab berishga xizmat qilgan. Masalan: *Voybolam, Amudaryo, Oshiq G'arib, Paranji, Fotiyeva, Bexosiyat, Tekturmas* kabi laqablarda individuallik xususiyati, ijodiylik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Sharof Boshbekov asarlaridagi sintaktik birliklar lingvopoetikasi**" deb ataladi. Mazkur bob Sh.Boshbekov ijodida intertekstuallik, ironiya, parsellyativ qurilmalar, ellipsis, buyruq va so'roq qurilmalarning lingvopoetik xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan. Bobning ilk bo'limi "**Sharof Boshbekov asarlaridagi intertekstuallikning lingvopoetik imkoniyatlari**" deb nomlanadi. Sh.Boshbekov dramalarida ham intertekstuallikning quyidagi ko'rinishlari aks etadi: matn ichida ayrim kontekstual o'zgarishlarga uchragan frazeologik birliklar, folklor syujetlari, maqollar, hikoyalar, afsonalar va boshqalar, matn ichida matn, allyuziv nomlar orqali obrazlilikni oshirish, komik effekt hosil qilish kabi.

Matn ichida ayrim kontekstual o'zgarishlarga uchragan frazeologik birliklar suhbat jarayonida qahramonning qiyofasi va ichki dunyosi, emotsional holati va voqelikka hissiy munosabati, individual tabiatini aks ettirishda qo'l keladi. Masalan: Sayohatxon. *Nima meni tiriklay yerga ko'mmoqchimisan? Shuni bilib qo'y, bola, men mahallada "Sayohatxon"man, ishxonada "Sayohat Otayevna" bo'laman! Yo'q, bo'ldi!.. Suyak borib pichoqqa yetdi!*

Zulfiqor (*eshikdan boshini chiqarib*). "**Pichoq borib suyakka yetdi!**" deyiladi, *xonim*. ("Eski shahar gavroshlari", 121-bet)

Suyak borib pichoqqa yetdi kabi ibora tilimizda yo'q, iboradagi so'zlarning o'rin almashinuvi o'ziga xos kulgi chiqarishga xizmat qilgan. O'zbek xalqida *pichoq borib suyakka yetdi* iborasi mavjud bo'lgani bois ayrim kontekstual o'zgarishlarga uchragan frazeologik birlikni o'qigandayoq kulgi hosil bo'ladi. Muallif qahramoni tilidan iborani tuzatish, to'g'rilash orqali vaziyatning kulgili emas, balki tarang ekanligiga ishora qiladi. Yana ijodkor tomonidan "*Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi*", "*Ota go'ri – qozixonami?*" kabi turg'un birikmalarning "*Daraxt bo'lmasa shamolning uchi qimirlamaydi*", "*Qozi go'ri – otaxonami?*" shaklda kontekstga olib kirilganini ko'ramiz. Bu usulni mohir dramaturg kulgi chiqarish, yumoristik effekt hosil qilishning individual vositasiga aylantirgan. Sh.Boshbekov intertekstuallikdan to'laligicha o'ziga xos bir tarzda foydalana bilgan. Masalan: *Bir quchoq bargni ko'tarib Zumrad paydo bo'ladi.*

Uning bor fazilati ham, kamchiligi ham bitta – kamgap. Zumrad. Munis opa, ho‘, Munis opa!..

Tesha. *E-ha, Zumrad-Qimmat, senmiding? Qishloqqa qanaqa jarchi kelib qolibdi, debman. Yaxshimisan.* (“Tushov uzgan tulporlar”, 71-bet)

Keltirilgan parchada intertekstuallik onomastik birliklar vositasida yuzaga kelgan. Qahramonning ismi *Zumrad* bo‘lgani holda unga “*Zumrad va Qimmat*” ertagidagi xarakter jihatdan zid bo‘lgan *Qimmat* nomi bilan birgalikda murojaat qilinadi, ya’ni *Zumrad-Qimmat* tarzida. Natijada ertak sarlavhasi va syujeti bilan aloqalanitirilgan intermatn yuzaga kelgan. Ta’kidlash kerakki, ijodkor tomonidan bunday badiiy maqsadga bo‘ysundirilgan, mashhur nomlar ko‘p uchraydi. Jumladan, *Suqrot, Amir Olimxon, G‘irot, “26-si otilmasin”* (kinofilm nomi), *Oshiq G‘arib, Don Kixot* kabi. Shuningdek, Janni Rodari, Said Ahmad, G‘.G‘ulom kabi adiblarning mashhur asarlari bilan bog‘liq allyuziyalar uchraydi. Asosiy matnga olib kirilgan bunday o‘zga matnlar, yoki ularning muayyan unsuri dramaturgning asosiy matni bilan ham mazmunan, ham lisoniy jihatdan uyg‘unlasha olgan va asarning badiiy qimmatini oshirib, estetik qimmat kasb etgan. Ta’kidlash kerakki, jodkor mahorati nafaqat o‘zga matnlardan foydalanganida, balki o‘z asarlaridagi ayrim nomlar va mashhur jumlarlar jamiyat vakillari orasida tez-tez esga olinishida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, *Alomat* yoki *Temir xotin* – ishchan ayollarga nisbatan; *Qumri* – sodda, gapni tezda ilg‘ab olmaydigan insonlarga nisbatan va “*rakatoping*”, “*odamning erkagi*”, “*Bozorvoy akam to‘rt qopgina turp olib bozorga ketuvdilar*”, “*Bitta bayroq, bitta lokator*” kabi. Bu kabi jamiyat vakillari tomonidan keng qo‘llaniladigan, oson tushuniladigan birliklar ayrim ilmiy asarlarda pretsedent birliklar nomi ostida ham tadqiq qilinadi³⁰.

Bobning ikkinchi bo‘limi “**Sharof Boshbekovning ironiyadan foydalanish mahorati**” deb nomlanadi. Ironiyaga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarda mazkur masala yuzasidan bir qancha fikrlar berilgan³¹. Tadqiqotlarda so‘z, iboralarning kesatish, masxaraomuz kulish niyatida o‘z ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda ishlatilishi ironiyaning eng asosiy belgisi sifatida qayd etiladi. So‘z ma’nosining o‘zgarishi fikrning ifoda maqsadi bilan bog‘liq ekan, demak, kinoya bevosita matn tarkibida hosil bo‘ladi va boshqa so‘zlar yordamida mazmuni anglashiladi. Ironiya zaminida, avvalo, tanqidiy fikr yotadi. Quyidagi misolda voqea-hodisaga munosabat mavhum tushunchaning aniq narsa-hodisaga xos belgilarga qiyoslanishi orqali kuchli ironik mazmunni yuzaga keltirgan. Matn davomidagi “*Hozir ko‘pchilik shunaqa qilyapti*” jumlasida esa chog‘ishtirilayotgan birliklarning yorqin va aniq ifoda topishiga imkon yaratgan: *Erkak. Vijdon qiynalyapti.*

Ayol. Qarang-a! Juda qattiq qiynalyaptimi?

Erkak. Ha, burab-burab, sanchib-sanchib olyapti!

Ayol. Do‘xtirga ko‘rsating, operatsiya qilib olib tashlashadi. (O‘ychan.)
Vijdon ham ko‘richakdek gap: hech ish qilmaydi-yu, og‘rig‘i olamni buzadi.

³⁰ Гудкова.Д. Прецедентные имена и проблемы прецедентности. – М.: 1999. – С. 152.

³¹ Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 15; Йўлдошев М. Ядгаров Қ. Бадий матннинг лисоний тахлили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 63; Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2001. – Б. 20.

Ortiqcha dahmaza. Hozir ko'pchilik shunaqa qilyapti. Bir yo'la hamma azobdan qutulasis. ("Taqdir eshigi", 19-bet)

Sh.Boshbekov asarlarida nafaqat sintaktik, balki fonetik-intonatsion, leksik-frazeologik, morfologik yo'llar orqali ham o'ziga xos usulda hosil qilingan ironik topilmalarini ko'rishimiz mumkin. Masalan: -cha (*Olimcha*), -vachcha (*robotvachcha, shoirvachcha*), -shunos (*kallashunos*) qo'shimchalari morfologik, *chalafidoyi, azakayfiyat* kabi leksik usulda subyektning ichki maqsadini yuzaga chiqarish, iztehzoli piching mazmunini yuklash kabi lingvopoetik qimmat kasb etadi. Shuni qayd etish lozimki, ijodkor fikrini o'ta ta'sirchan ifodalashida asosiy lingvopoetik vosita sifatida ironiyadan unumli foydalangan.

Bobning uchinchi bo'limi "**Adib asarlaridagi ellipsis va parsellyativ qurilmalar badiiyati**" deb nomlanadi. Sh.Boshbekov asarlarining lingvopoetik xususiyatlari tekshirilganda, elliptik nutq masalasi, albatta, e'tiborga olinishi lozim. Chunki ellipsis yozuvchining alohida badiiy niyatini namoyon qiladi. Tushirilgan bo'lakning estetik yuki oshkora ifodalangan bo'laklar zimmasiga o'tadi. Natijada ifodada ixchamlik, mazmun mundarijada ohorlilik hosil qilinadi. Ya'ni ellipsis orqali hajman ixcham, mazmunan qatlamdor jumlar yuzaga keladi. Elliptik nutq o'quvchi uchun ham qulay nutq hisoblanadi. Chunki o'zi bilgan, osongina tiklab olishi mumkin bo'lgan bo'lakni qayta o'qish mashaqqatidan qutuladi. Shu ma'noda Sh.Boshbekov asarlarining elliptik mexanizmi lingvopoetik jihatdan alohida tadqiqot obyekti bo'la oladi. Masalan: Sh.Boshbekov asarlarida, umuman, badiiy matnda paremiologik birliklarning u yoki bu qismi tushirilishi asosida elliptik nutq hosil qilinishi ko'p kuzatiladi. Masalan: Soli. *Soy – soyga, boy – boyga ekan-da, a, shef?*

O'tkir. *Do'stlaringga bunaqa baho berishni o'rganganingga ko'p bo'ldimi?* ("Tikansiz tipratikanlar", 52-bet). Mazkur badiiy matnda *Soy – soyga oqar, boy – boyga boqar* maqolining kesimlari tushirilgan holda qo'llangani kuzatiladi. Bunda mazkur maqolning so'zlovchi va tinglovchi uchun tanish ekanligi ellipsis uchun imkon yaratgan. *Oqar* va *boqar* fe'llari matnda implitsit shaklda ishtirok etayotganligi anglashiladi. Maqolning alleteratsiyaga asoslanishi u orqali ekspressiyani yuzaga keltirgan bo'lsa, kesimlarning tushirilishi tinglovchida mazkur iboraga munosabatni faollashtirgan.

Mazkur uchinchi bo'limda parsellyativ qurilmalarning ham Sh.Boshbekov asarlaridagi o'rni yoritilgan. O'zbek tilshunosligida parsellyativ qurilmalarning lingvopoetik imkoniyatlari birinchi marta Sh.Haydarovning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan. Tadqiqotda badiiy matnda parsellyativ qurilmalarning poetik maqsadlar bilan namoyon bo'lishi asoslab berilgan³². Gap tarkibini sintaktik jihatdan qayta bo'lish ijodkor ekspressiv maqsadiga muvofiq amalga oshiriladi: Ayol. (*Ko'zlarini bir nuqtaga qadab*) *Menimcha, faqat bolalargina rostakamiga sevoladi. Shundoq ro'yirost, hisob-kitobsiz, tamasiz...* ("Taqdir eshigi", 16-bet)

Parchadagi "*Menimcha, faqat bolalargina rostakamiga sevoladi*" jumlasigacha bo'lgan qism – umumiy ma'lumot, gap ichidan alohida ajratib

³² Хайдаров Ш. Бадий матнда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – Б 147.

olingan *Shundoq ro'yirost, hisob-kitobsiz, tamasiz* uyushiq parsellyativ qurilmasi esa qo'shimcha ma'lumot tashuvchi qismga aylanyapti. Agar qo'shimcha ma'lumot umumiy ma'lumot ichiga kiritilganida yetarlicha ta'kid olmagan bo'lar edi. Parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqarilganida integrativ munosabat saqlangan holda ta'kid sezilarli darajada oshgan.

Bobning "**Sharof Boshbekov asarlaridagi buyruq va so'roq qurilmalar lingvopoetikasi**" deb nomlangan so'nggi bo'limida buyruq va so'roq qurilmalarning matni shakllantirishdagi o'rni hamda lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Ma'lumki, badiiy asarlarda qahramonlar nutqida buyruq-istak mazmunli birliklarning ham alohida o'rni va vazifasi bor. Odatda qahramonlar nutqi ularni qurshagan sharoit bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Sharoitlar, vaziyatlar ko'pincha qahramonlar nutqining ahamiyatini oshiradi, mazmunini chuqurlashtiradi, muayyan vaziyatda qahramonning gapirishi shart ekani psixologik jihatdan ochib beriladi. Mazkur masalalar o'zbek tilshunosligida T.Allayorov tomonidan monografik aspektda tadqiq qilingan. Unda buyruq va so'roq qurilmalarning matni shakllantirishdagi o'rni hamda lingvopoetik xususiyatlariga diqqat qaratilgan³³.

Buyruq qurilmalar imperativ qurilma nomi ostida ham tadqiq qilingan bo'lib, sof buyruqlar, taqiqlar, ko'rsatmalar, tavsiyalar, maslahat, iltimos, ogohlantirish vazifasi uchun ishlatiladi. Buyruq qurilmalarning vazifasi bir yoki bir necha kishini harakatga chaqirishdir. Badiiy matnda buyruq shakllarining to'liq anglanishi, avvalo, nutq vaziyatiga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, dramatik asarlarda ushbu qurilma o'rganilganida buyruq vaziyati estetik talablar asosida oshkora yoki yashirin tarzda berilishi, *gender xususiyatiga ko'ra farqlanishi* kuzatiladi. Buyruqlarning ishlatilishida yozuvchining mahorati uning qay darajada so'zga e'tiborli ekanligi bilan belgilanadi.

Badiiy matndagi buyruqlarni gender xususiyatiga ko'ra ham tahlil qilish mumkin: 1. Erkaklar nutqiga xos buyruqlarning voqelanishi: *Qo'chqor. (uy tomonga). Ho', tirikmisan?.. (Tipirchilaydi). Yechib qo'y darrov, ho'o'!.. Qumri, deyapman, jahlim chiqsa nima bo'lishini bilasan-a? Yaxshilikcha bo'shat! (biroz kutib). Iye, bir balo bo'lganmi bunga?..Oxirgi marta aytyapman, agar hozir yugurib kelib, qo'limni bo'shatmasang...*

Keltirilgan matndagi buyruq gap kuchli intonatsiya asosida shakllantirilgan. Qahramon nutqida ifodalanayotgan do'q-po'pisa, talab, qat'iy buyruq erkak kishi nutqiga xos ekanligi anglashiladi. Matnda II shaxs buyruq-istak maylining hech qanday grammatik vositalarsiz qo'llanishi ham kuchli oshkora buyruq ifodalashda muhim ahamiyat kasb etgan.

2. Ayollar nutqidagi buyruqning voqelanishi. Ular nutqidagi imperativlik, asosan, *yashirin* tarzda ifodalanadi. Masalan, quyidagi matnda vaziyat jihatidan ayol qat'iy buyruqni ifodalamoqchi. Ammo u milliy mentalitet jihatidan *II shaxs birlikdagi buyruqni* ishlatishni ma'qul topmagani uchun *III shaxs kelasi zamon*

³³ Аллаёров Т. Ўзбек тилида буйруқ ва сўроқ конструкцияларнинг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Гулстон, 2020. – Б. 124.

shaklidagi so‘roq gapni qo‘llaydi: Ayol. (*Tushishga urinib ko‘radi, yuragi dov bermaydi.*) Oxirgi marta aytyapman, stol **keladimi bu yerga, yo‘qmi!?**

Erkak. *Yo‘q! Bormaydi!* (“Taqdir eshigi”, 20-bet).

Parchadan anglashiladiki, buning o‘rniga *stolni olib keling* yoki *olib kelmaysizmi* deyish mumkin edi. Bunda buyruq qaratilgan shaxs aniq bo‘lardi va bu holat ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq kelmasligi mumkin edi. Masalani muallaq holda ifodalash orqali buyruq obyektini yashirin ifodalanadi. Sharof Boshbekovning mahorati shundaki, o‘zbek lingvomadaniyatida ayol kishining erkakka buyruq berishi noodatiyligi mazkur ifoda tarzi orqali o‘rinli tarzda ifodalangan. Dramalarda erkaklar va ayollar nutqida buyruq shakllarining ifodalanishi, asosan, quyidagi tafovutlar orqali belgilanadi: *Erkaklar nutqida*, asosan, sof buyruq shakllari, qat‘iylik, oshkoralik, o‘z yaqinlariga va o‘zidan kichiklarga nisbatan ohangda biroz dag‘allik belgilari yetakchilik qiladi. *Ayollar nutqida* esa yashirin buyruqlar, buyruq shakllarining II shaxs birlik o‘rnida, asosan, II shaxs ko‘plik shakllarini qo‘llash, ohangdagi yumshoqlik va ayrim o‘rinlarda g‘azabini, noroziligini ko‘rsatish uchun III shaxs birlikdagi buyruq shakllari orqali qarg‘ish va nafrat ifodalovchi so‘zlarni qo‘llash kuzatiladi. Bu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, muallif asarning boshidan oxiriga qadar ayollar nutqini shu tarzda xoslashtirgan, ya‘ni erkaklarga nisbatan sizlash hurmat formasi saqlangan.

Mazkur bo‘limda yana so‘roq qurilmalardan qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida unumli foydalanilgani xususida fikr yuritiladi. Ijodkor uchun so‘roq qurilmalar qahramonlar dunyosida kechayotgan badiiy voqelikni to‘liq aks ettirish imkonini yaratadi. Sh.Boshbekov ham asarlarida nutqni individuallashtirish va xarakterlarni to‘la-to‘kis ochish maqsadida so‘roq qurilmalardan unumli foydalanganini, qahramon qalbidagi kechinmalar so‘roqlar silsilasida ochib berilgani hamda yozuvchi o‘quvchiga aytmoqchi bo‘lgan gaplarni ayta olishi uchun muayyan vaziyat yaratgani o‘rganib chiqildi.

Yozuvchi so‘roq qurilmalar orqali kitobxonga vaziyat va holatlarni, xarakterlarni voqea-hodisalarni qiyoslash imkoniyatini yaratib beradi. Alomatning “kuyib ishlamay qolishi”ga *Qo‘chqor* sababchi qilib ko‘rsatilganida uning nutqidagi “*Alomatga biror ortiqcha yumush buyurgan bo‘lsam, til tortmay o‘lay... Nima ish qilib qo‘yibdi? (...) Axir u bitta o‘zbek ayoli qiladigan ishning yarmini qildi xolos-ku!.. Qanaqasiga men o‘ldirgan bo‘lay?*” so‘roqlari orqali vaziyat qiyoslanadi. Ikki qahramon (*Qumri-Alomat*) va ular bajargan ishlar taqqoslanadi. Sodda, g‘o‘r sifatida namoyon bo‘lgan qahramon birinchi marta mazkur so‘roq qurilmalar orqali fikrlay boshlaydi. O‘quvchi ham bu so‘roq jummalari orqali ijtimoiy hayot voqeliklariga befarq qolmaydi. Bundan ko‘rinadiki, so‘roq qurilmalar badiiy matnda faqat savol-javob vositasigina emas, balki poetik aktuallikni oshirishda sezilarli xizmat ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir.

XULOSA

1. O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos uslubi, so‘z qo‘llash mahorati bilan favqulodda muhim o‘rin tutgan Sh.Boshbekov asarlari o‘zbek tilining betakror ifoda imkoniyatlarini namoyon qiluvchi katta xazinadir.

2. Sh.Boshbekov o'z asarlarida qahramon nutqiga xoslikni ta'kidlash va dialogik nutqni jonli nutqqa uyg'unlashtirish uchun unlilarni qavatlab qo'llash, nutqning uzilishi, so'zlarni bo'g'inlarga ajratib ifodalash kabi poetik vositalardan keng foydalangan.

3. Sh.Boshbekov komik effekt yaratish uchun qahramon nutqida o'ziga xos, alohida e'tibor tortadigan takrorlanuvchi birliklardan foydalanadi. Ularning aksari pretsedent birlikka aylanib, asar qahramonlarining "tashrif qog'ozi"ga aylangan.

4. Sh.Boshbekov tilning ifoda imkoniyatlarini namoyon qiluvchi sinonim, antonim, paronim va ko'chimlardan asar ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida unumli foydalangan. Natijada qahramonlar ruhiyatini tugal tasvirlash va nutqini individuallashtirish imkoniyati yaratilgan.

5. Jonli xalq tilida avvaldan mavjud bo'lgan va ijodkorning o'zi o'ylab topgan dag'al so'z va birikmalarning badiiy matndagi o'rnini jinsga mansublik nuqtayi nazaridan ham o'rganish badiiy asar tahlili tamoyillaridan biri bo'lishi lozim. Badiiy asarda qahramonlar nutqi tekshirilganda, albatta, gender nuqtayi nazaridan baholash, munosabat bildirish ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, Sh.Boshbekov asarlarida jinsga mansublik ta'kidi orqali komik effekt hosil qilinganligi ko'p kuzatiladi.

6. Sh.Boshbekov asarlarida ironiya kuchli tasviriy vositalardan biri hisoblanadi. Muallif komik effekt hosil qilish, ijtimoiy muammolarni yoritish maqsadida qahramonlar nutqini kinoyaviy ma'no ifodalovchi birliklar bilan boyitadi.

7. Sh.Boshbekov asarlarida antroponimlar jiddiy poetik maqsad bilan qo'llangan. Xususan, qahramonlarning ismi va laqabi ijodkorning badiiy maqsadini yoritishga xizmat qiluvchi lingvopoetik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

8. Ijodkor asarlarida maqollar, hikoyalar, rivoyatlar, allyuziv birliklar intertekstuallikni ta'minlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, badiiy ifoda imkoniyatlarining ko'lamini, matnning estetik ta'sir quvvatini va obrazlilikni oshirish maqsadida tanish nomlardan mahorat bilan foydalanilgan.

9. Sh.Boshbekov asarlarining elliptik mexanizmi alohida lingvopoetik qimmat kasb etadi. Xususan, mazkur hodisa dramatik matnda emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi kuchli vositaga aylanadi.

10. Sh.Boshbekov asarlarida aytilishi kerak bo'lgan eng muhim fikrni tinglovchiga ixcham va aniq yetkazib berish maqsadida parsellyativ qurilmalardan unumli foydalanilgan.

11. Ijodkor asarlarida buyruq shakllarining ifodalanishi erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutni ta'kidlashga xizmat qilgan. Turli mazmundagi buyruq gaplar qahramonlar tilidan ifodalangan bo'lsa-da, dramaturg munosabatini ham o'z ichiga olgan hamda ijodkorning badiiy niyatini mukammal ifodalagan.

12. Sh.Boshbekov asarlarida nutqni individuallashtirish va qahramon tabiatini to'la-to'kis yoritish maqsadida so'roq gaplardan keng foydalanilgan. Savol-javoblar vositasida muallif aytmochi bo'lgan fikrdan tashqari, qahramonning saviyasini yoritish, ularning nutqini xoslashtirish kabi badiiy maqsadlarga erishilgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 AT THE INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE,
LITERATURE AND FOLKLORE OF
THE UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES**

INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE

ANDANIYAZOVA GAVHAR RUZIKULOVNA

LINGUOPOETIC FEATURES OF SHARAF BASHBEKOV'S WORKS

10.00.01 – Uzbek language

**DISSERTATION ABSTRACT FOR DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
IN PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2024

The theme of PhD dissertation is registered by Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.2.PhD/Fil2366.

The dissertation has been prepared at the Institute of Uzbek language, literature and folklore.

The abstract of the PhD dissertation is posted in three (Uzbek, Russian, English (resume)) languages on the website of Scientific Council (www.tai.uz) and «ZiyoNet» information and educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific advisor: **Yuldashev Marufjan Muhammadjanovich**
Doctor of Philological science, Professor

Official opponents: **Lutfullaeva Durdana Esanovna**
Doctor of Philological science, Professor


Sabirov Abdulhay Shukurovich
Doctor of Philological science, Professor

Leading organization: **Kokand State Pedagogical Institute**

Defense of the Dissertation will take place on « 2 » December 2024, at « 14 »⁰⁰ p.m. at a meeting Scientific Council DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 under Scientific Degree at the Institute of Uzbek language, literature and folklore of the Uzbekistan Academy Sciences (address: 100060, city Tashkent, str. Shakhrisabz passage, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertation could reviewed at the Main Library of the Uzbekistan Academy Sciences (address: 100100, Tashkent, str. Ziyolilar, 13. Tel: (99871) 262-74-58).

The abstract of the dissertation was distributed on « 18 » November 2024.
(Registry report number 11 on « 18 » November 2024)


N.M.Mahmudov
Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, Professor

A.M.Hasanov
Scientific Secretary of Scientific Council
for awarding scientific degrees,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology sciences

D.S.Khudayberganova
Chairman of Scientific Seminar at the
Scientific Council awarding scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, Professor

INTRODUCTION (annotation of the PhD thesis)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In the world linguistics, special importance has been attached to the attitude towards the language of literary works and the research of literary language skills of creators. In particular, the improvement of the linguopoetic approach raises the question of the comprehensive study of language units in the literary text. A specific language unit interacts with other units in the overall artistic text not only semantically-grammatically, but also emotionally-aesthetically. In this sense, studying how different language units in the artistic text serve the literary-aesthetic purpose of the creator is one of the urgent tasks.

In world linguistics, it has become one of the urgent tasks to study the language in connection with the speech activity, mentality, social status, age, gender of the person who uses it. One of the independent branches of linguistics in this direction is linguopoetics, in which the main attention is paid to the study of the issue of language units becoming an invaluable tool that serves to illuminate the various literary intentions of the author in an literary text, as well as the manifestation of unique poetic laws. Therefore, linguopoetic research, including the research carried out within the framework of the research of literary language skills of a certain writer, is of particular importance in the development of the field. The need for research in this regard determines the goals and tasks of research on linguopoetics and is evaluated within the framework of current problems of linguopoetics.

In our country, special attention is being paid to the scientific research of the linguistic features of works that show the freshness of the Uzbek language, and to the study of the contributions of creators to the development of the Uzbek language. As a result, there is an opportunity to fully imagine the scope of artistic expression of the Uzbek language and to show the unique skills of artists. In the works of Sh.Bashbekov, the endless possibilities of expression of the ancient and rich Uzbek language are expressed. To develop the field of linguo-poetic research by studying the poetic possibilities of phonetic-phonographic, lexical, grammatical tools used in literary works, expressions of applause, cursing, dialectal words, interrogative and command sentences typical of live speech and in this regard there is an opportunity to fill in the blanks. In this sense, the study of linguopoetic features of the language of the works of Sharaf Bashbekov, who made a great contribution to the development of Uzbek dramaturgy with his unique creative heritage, determines the relevance of the research topic.

Decisions of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 4, 2019 No. PQ-4479 "On the wide celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Language", and also dated October 21, 2019 PF-5850 "On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language", PF-6084 dated October 20, 2020 "Further development of the Uzbek language in our country and "On measures to improve the language policy"¹, "On the development strategy of

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini

New Uzbekistan for 2022-2026"² and other regulatory legal documents related to this activity in implementation, the results of this dissertation research serve to a certain extent.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was completed in accordance with priority line I. "Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy" of the republican science and technology development.

Level of study of the problem. Studies related to the specific features of the language of a work of art have a long history in world linguistics. It can be said that linguopoetics was formed as a separate independent field as a result of interest in learning the language of artistic works and extensive research in this regard. Many studies have been carried out in linguistics on these issues.³ In these works, it is emphasized that special attention should be paid to the aesthetic functions of language units during the research of artistic texts.

In Uzbek linguistics, issues such as the linguopoetic study of the literary text, the skill of using the language of a certain artist have been specially studied. In this regard, the researches of I.Mirzaev, A.Nurmanov, N.Mahmudov, M.Yakubbekova and M.Yuldashev are important from a scientific and theoretical point of view.⁴ In recent years, in the researches of G.Muhammadjanova, D.Jamaliddinova, F.Ibragimova, D.Andaniyazova, Sh.Tashkhojayeva, D.Turdaliyeva, T.Allayarov, Z.Mukimova, J.Matnazarov, M.Yakubova, J.Yuldashev, in their research, the role of language units in the formation of literary text, the works of a number of Uzbek artists, and the linguopoetic features of examples of folk art are revealed.⁵

yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni//lex.uz/docs/5058351.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni//https://lex.uz/docs/5841063.

³ Bu haqda qarang: Винокур Г.О. Критик Поэтического текста. – М.: Государственная Академия художественных наук, 1927; Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку – М.: Учпедгиз, 1957. – С. 188; Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1992. – С. 61; Липгарт А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале английской литературы): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996. – С. 23; Shu muallif. Основы лингвопоэтики / учебное пособие. – М.: "Диалог-МГУ", 1999. – С. 165.

